

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**V RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.uz>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Muxsinova Musallamxon

TABIY FANLARDA HAYOTIY MUAMMOLAR YECHIMI

(FIZIKA VA MATEMATIKA ASOSIDA) 5-7

TEXNIKA FANLARI

Baxriddinov Nodirbek

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN

QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI: AQSh VA YeVROPA TAJRIBASI 8-11

TARIX FANLARI

To'uchiyeva Dilnoza

ZOMIN TUMANINING IQTISODIY TARIXI XUSUSIDA (2013-2024 YILLAR) 12-19

Норов Шухрат

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СРЕДИ

МОЛОДЕЖИ 20-25

Bazarbayeva Nilufar

O'ZBEK MILLIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI XUSUSIDA 26-29

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LARDAN FOYDALANISHNI

TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY FAOLLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI 30-34

Кайыбеков Парахат

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ АВТОМОБИЛЬНЫМИ ТРАНСПОРТНЫМИ

УСЛУГАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ 35-41

Ibragimov Jakhongir

SANOAT KORXONALARIDA YASHIL INNOVATSIYALARNI JORIY QILISHGA EKSTERMAL IQLIM

O'ZGARISHLARI TA'SIRINI BAHOLASH 42-45

FALSAFA FANLARI

Mamadiyarova Malika

GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA OILAVIY QADRIYATLAR TRASFORMATSIYASI 46-48

Ro'ziyev Maqsud

ABULHASAN BAXMANYOR MA'NAVIY MEROSIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI 49-52

FILOLOGIYA FANLARI

Tursinbaev Ilham

BOLALAR POEMALARIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI 53-57

Pulatjonova Muxtasar

HOW DO UZBEK LEARNERS USE DISCOURSE MARKERS IN ENGLISH SPEAKING: A LEARNER

CORPUS ANALYSIS 58-60

Abdulxayeva Nodirabegim

TRANSLATION OF REALIA IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION 61-63

Absalomova Feruza

KOREYS TILI O'RGATISHDA O'QUVCHI MOTIVATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR:
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY KONTEKST 64-68

GEOGRAFIYA FANLARI

Nazirov Mirjalol

FARG'ONA VILOYATIDAGI MIGRATSION JARAYONLARNING RETROSPEKTIV TAHLILI VA
HUDUDIIY DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI 69-71

YURIDIK FANLARI

Tog'onova Jemala

MEDIATSIYADA ADVAKATNING RO'LI 72-76

Shomurodov Sanjar

SUN'IY INTELLEKT MAHSULOTLARINI MUHOFAZA QILISHDA HUQUQIY MUVOFIQLIK
MASALASIDA YAGONA XALQARO KONVENSIYA ZARURATI 77-80

Qilichev Nosirbek

SPORT TAVAKKALCHILIGI – QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT
SIFATIDA 81-84

Xolmo'minova Barchinoy

DAVLAT PENSIYALARINING TURLARI VA ULARNI TAYINLASHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI 85-90

PEDAGOGIKA FANLARI

Таджибаева Альбина

РЕФЛЕКСИВНАЯ ПРАКТИКА В ОБУЧЕНИИ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И СТРАТЕГИИ
ФОРМИРОВАНИЯ ТРАСК..... 91-96

Собирова Гулибарно

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ..... 97-101

TIBBIYOT FANLARI

Numonjonov Asrorjon, Mansurova Nargiza

ICHKI MUHIT REZONANSINING MIGREN TRIGGERLARIGA TA'SIRI: TIZIMLI VA ICHAK
FAKTORLARINING INTEGRATSIYASI 102-104

PSIXOLOGIYA FANLARI

Kurbonov Munis

KASBIY IDENTIFIKATSIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH..... 105-107

DAVLAT PENSIYALARINING TURLARI VA ULARNI TAYINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xolmo'minova Barchinoy Abdumalik qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Mehnat huquqi mutaxassisligi magistranti

E-mail: abdumalikovna2112@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan davlat pensiya turlarining – yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarining mazmun-mohiyati, huquqiy asoslari, tayinlash tartibi va amaliy ahamiyati batafsil yoritib berilgan. Maqolada, shuningdek, pensiya tizimining ijtimoiy adolat, inson huquqlarini ta'minlash va ehtiyojmand qatlamlarni qo'llab-quvvatlashdagi o'rni, xalqaro shartnomalar orqali pensiya ta'minotining kengayishi va nogiron shaxslar uchun alohida yondashuv zarurligi haqidagi fikrlar ham ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: yoshga doir pensiya, nogironlik pensiyasi, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi, nogironligi bo'lgan shaxslar, pensiya yoshi.

TYPES OF STATE PENSIONS AND SPECIFIC FEATURES OF THEIR APPOINTMENT

Kholmo'minova Barchinoy Abdumalik kizi

Tashkent State Law University

Faculty of Master's and Correspondence Education

Master's student in Labor Law

Annotation. This article provides a detailed overview of the types of state pensions available in the Republic of Uzbekistan, namely, old-age pensions, disability pensions, and survivor's pensions. It explores their essence, legal foundations, procedures for assignment, and practical significance. The article also highlights the role of the pension system in ensuring social justice, protecting human rights, and supporting vulnerable groups. In addition, it addresses the expansion of pension provision through international agreements and emphasizes the need for a tailored approach for persons with disabilities.

Key words: old-age pension, disability pension, survivor's pension, persons with disabilities, retirement age.

DOI: <https://doi.org/10.47390/Ydif-Res5/No-19>

Ma'lumki, davlat pensiyalarining yoshga doir, nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik turlari mavjud. Ushbu pensiyalar bugungi kungacha ko'plab o'zgartirishlarga uchrab ma'lum ma'noda o'zining rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib kelmoqda. Quyida ushbu pensiya turlarining har birini muhokama qilib o'tamiz.

“Yoshga doir pensiya” atamasi O'zbekiston qonunchiligida nisbatan yangi bo'lib, ilk bor 1993-yil 3-sentyabrda qabul qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi qonunda ishlatilgan. “Qarilik” va “yoshga doir pensiya” tushunchalari o'rtasida muhim farq mavjud: shaxsga yoshga doir pensiya tayinlangani u albatta qariyadir degani emas. Amaldagi qonunchilikda hatto 40, 45 yoki 50 yoshdan pensiyaga chiqish imkoniyati belgilangan. Shu bois, 40, 50, hattoki 60 yoshdagi odamni qariya deb hisoblash ko'pchilik uchun noodatiy

tuyuladi 1. Turmush sharoitining yaxshilanishi, sog'liqni saqlash tizimi va ijtimoiy xizmatlar sifatining oshishi natijasida aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi ortib bormoqda. Masalan, 1991-yilda har 100 ming ayolga nisbatan onalar o'limi 65 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2012-yilda bu ko'rsatkich 24 taga kamaygan. Shuningdek, 1000 nafar tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan go'daklar o'limi 35 tani tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilda bu raqam 14 taga tushgan. O'zbekiston aholisi o'rtasida o'rtacha umr davomiyligi ham izchil oshib bormoqda: agar 1990-yilda bu ko'rsatkich 67 yosh bo'lgan bo'lsa, 2006-yilga kelib 72,5 yoshga yetgan. Jumladan, erkaklar uchun 66 yoshdan 70 yoshga, ayollar uchun esa 70 yoshdan 74,6 yoshga oshgan.

Yoshga doir pensiya fuqarolarning sog'lig'i yoki mehnat qobiliyatining yo'qolishi bilan bog'liq emas. M. D. Ziyedullayevning fikricha: "Yoshga doir pensiya – bu fuqaroning uzoq yillar mehnat faoliyati davomida jamiyat rivojiga qo'shgan hissasi evaziga davlat tomonidan taqdim etiladigan moddiy ta'minot shaklidir. Aslida bu pensiya fuqaroga mehnatga layoqatsizlik sababli emas, balki uning ishlab chiqarishdagi uzoq muddatli ishtiroki va jamiyat oldidagi xizmatlari uchun belgilanadi. Bu orqali fuqaroni mehnatdan ozod qilish va unga muayyan darajada ijtimoiy-iqtisodiy kafolat yaratish maqsad qilingan. Yoshga doir pensiyada pensiya tizimiga xos bo'lgan umumiy belgilardan tashqari, aynan ushbu turga tegishli xususiyatlar ham mavjud. Qonunning 7-moddasida esa aynan qarilik emas, balki ma'lum yoshga yetganlik asosida beriladigan pensiya haqida so'z boradi. Qonunga binoan, erkaklar 60 yoshdan, ayollar esa 55 yoshdan boshlab yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega. Shuningdek, qonundagi imtiyozli holatlarga asosan ayrim toifadagi fuqarolar uchun bu yosh chegarasi 54, 53, 50, 45 va hatto 40 yoshgacha tushirilishi ham nazarda tutilgan. Bu esa tizimning ijtimoiy adolat tamoyiliga asoslanganligini yana bir bor ko'rsatadi" 2.

Bu pensiya turi, shunchaki, belgilangan yoshga yetgan va qonunchilikda ko'zda tutilgan miqdorda mehnat stajiga ega bo'lgan shaxsga to'liq umr davomida tayinlanadigan davlat tomonidan beriladigan moddiy ta'minot shaklidir. Bunda fuqaroning mehnatga layoqatsiz deb topilishi shart emas. Yoshga doir pensiya mohiyatan fuqaroning ilgari qilgan mehnati, jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi evaziga unga jamiyat tomonidan ajratiladigan daromad va bu mamlakatning milliy boyligidan fuqarolarga qayta taqsimlanadigan ijtimoiy kafolatdir.

Fuqarolarning pensiya ta'minoti borasida davlatlar o'rtasida ikki yoki ko'p tomonlama xalqaro shartnomalar tuzish orqali hamkorlik olib boriladi. Bu shartnomalar asosida bir davlat fuqarolarining boshqa mamlakatda ijtimoiy himoyasi, jumladan, ularni yoshga doir pensiya bilan ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi bir nechta davlatlar bilan shunday turdagi ikki va ko'p tomonlama kelishuvlarni imzolagan bo'lib, ushbu hujjatlar asosida hamkorlik amaliyotda qo'llanilmoqda. Fuqarolar muayyan yoshga yetib, zarur ish stajiga ega bo'lganlarida pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Shunday huquq paydo bo'lgach, ular istalgan vaqtda pensiya tayinlanishini so'rab murojaat qilishlari mumkin yoki bu huquqdan vaqtincha foydalanmasdan, o'z mehnat faoliyatlarini davom ettirishni

1 O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy ta'minot huquqi. Yu. Tursunov. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan yuridik instituti va boshqa oliy o'quv yurtlarining yuridik fakultetlari bakalavriyat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. —T.: «Voriz-nashriyot», 2012, —304 b.

2 M. Ziyadullayev. O'zbekistonda yoshga doir pensiya tizimiga uning huquqiy asoslarini takomillashtirish. Diss. dokt. PhD. —T.: 2019.

tanlashlari ham mumkin. Agar fuqaro qonuniy jihatdan bir vaqtning o'zida bir nechta pensiya turini olishga haqli bo'lib qolsa (masalan, u ilgari nogironlik pensiyasi yoki uzoq yillik xizmat pensiyasini olayotgan bo'lib, keyin yoshga doir pensiya olish yoshiga yetsa), u holda bu pensiyalardan faqat bittasini tanlab olish huquqiga ega bo'ladi. Qaysi pensiyani olishni tanlash esa fuqaroning o'z ixtiyoriga havola etiladi. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasida belgilanishicha, yoshga doir pensiyani olish huquqi quyidagi shartlar bajarilganda yuzaga keladi: erkaklar uchun – 60 yoshga yetgan bo'lishi va kamida 25 yillik mehnat stajiga ega bo'lishi zarur; ayollar esa – 55 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lsa, ushbu pensiyani olishga haqli hisoblanadilar.

Yurtimizda izchil olib borilayotgan kuchli ijtimoiy himoya siyosatida nogiron fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ular uchun qo'shimcha imtiyoz va kafolatlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ijtimoiy himoya uchun ajratilayotgan mablag'larning katta qismi nogironlar uchun qulay yashash va mehnat qilish sharoitlarini barpo etish hamda ularni ijtimoiy reabilitatsiyadan o'tkazish yo'nalishlariga yo'naltirilmoqda. Nogironlarga oid ijtimoiy siyosatning mohiyati, bu boradagi qonun hujjatlarining takomillashtirilishi va huquqiy asoslarning yangilanishida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xususan, 2020-yil 22-iyulda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, shuningdek, nogironlarning huquqlarini yanada samarali himoya qilishga qaratilgan yangi qonunlar, davlat dasturlari va boshqa amaliy chora-tadbirlarning qabul qilinishi, bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilayotgani bunga yaqqol misoldir. Mazkur qonunning 3-moddasiga ko'ra nogironligi bo'lgan shaxs deganda ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxs tushuniladi¹. Mazkur qonunning 36-moddasida esa ularning pul to'lovlari (pensiya, nafaqalar, bir yo'la beriladigan to'lovlar) olish huquqiga ega ekanliklari mustahkamlab qo'yilgan.

"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga ko'ra nogironlik pensiyalari I va II guruh nogiron deb e'tirof etilgan shaxslarga, shuningdek, Chernobil AESdagi avariya oqibatida jarohat olgan yoki kasallikka chalingani sababli III guruh nogironligi belgilanadigan fuqarolarga tayinlanadi². Nogironlik darajasi fuqaroning sog'lig'i yoki mehnatga layoqatlilik qobiliyati yo'qotilganlik darajasiga qarab, uch guruhga bo'linadi. Nogironlikning sabablari, guruhi, qachon boshlanganligi va qanchaga belgilanishi bo'yicha qarorlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan Nizom asosida faoliyat yurituvchi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tomonidan belgilanadi. Agar fuqaro mehnat jarayonida jarohat olgan bo'lsa yoki kasb kasalligiga chalingan bo'lsa, unga nogironlik pensiyasi ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi. Umumiy kasallik natijasida nogiron deb topilgan shaxslarga pensiya faqat ular nogironlik aniqlangunga qadar qonunchilikda belgilangan muayyan ish stajiga ega bo'lsa tayinlanadi. Biroq, agar nogironlik 20 yoshga to'lmasdan ilgari boshlangan bo'lsa – ya'ni ish faoliyati davomida yoki ishni to'xtatganidan keyin – pensiya ish stajiga qaramasdan beriladi. Agar fuqaro avval mehnatdagi jarohat yoki kasb kasalligiga doir

¹ <https://lex.uz/docs/-5049511> O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020)

² <https://lex.uz/acts/-112314> O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida", 03.09.1993-yil 938-XII-son (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2023)

nogironlik pensiyasi olib kelgan bo'lsa, keyinchalik esa umumiy kasallik sababli nogiron deb topilsa, bunday hollarda zarur ish staji nogironlik birinchi marta aniqlangan davrdagi yoshga qarab hisoblanadi. Agar fuqaroning ish staji yetarli bo'lmasa, ya'ni qonunning 17-moddasida ko'rsatilgan darajadan kam bo'lsa, I yoki II guruh umumiy kasallik nogironligi uchun pensiya mavjud ish stajiga mutanosib ravishda, 29-moddaga muvofiq tayinlanadi.

Yashash minimumi – kam ta'minlangan aholining byudjet tuzilmasiga to'g'ri keladigan iste'mol savatining xarajatlar qiymatini ifodalaydigan ijtimoiy standart bo'lib, o'z ichiga soliq va boshqa majburiy to'lovlarni oladi. Minimal iste'mol xarajati – insonlarning sog'lom hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarining minimal energiyaviy qiymati va nooziq-ovqat hamda xizmatlar uchun xarajatlarning hisoblangan qiymati yig'indisi bo'lib, uy xo'jaliklarining real iste'mol xarajatlari tarkibini o'rganish asosida aniqlanadi 1.

Shuningdek, M.D. Ziyadullayev tomonidan ilgari surilgan taklifga ko'ra respublikamizda hamma uchun umumiy bo'lgan iste'mol xarajatlar miqdori belgilandi, lekin nogiron shaxslarning yashash tarzida o'ziga xos jihatlari mavjud (dori-darmon, davolanish, o'zgalar parvarishiga muhtojlik, ijtimoiy moslamalarga xarajatlar) shuni hisobga olgan holda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun alohida iste'mol xarajatlari miqdorini belgilash taklif etildi 2.

Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy himoya siyosatining asosini aholining yordamga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy ahvolini yaxshilash, keksa avlod manfaatlarini ishonchli himoya qilish va yoshlarning jismoniy, aqliy hamda ma'naviy barkamol bo'lib ulg'ayishiga qulay shart-sharoit yaratish tashkil etadi. Ijtimoiy himoya tizimida esa tabaqalashtirilgan va aniq yo'naltirilgan yondashuvni chuqurlashtirish, ehtiyojmand oilalarga zarur moddiy yordam ko'rsatish orqali ularni qo'llab-quvvatlash ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiriladigan muhim vazifalardan biridir. Ota-onasidan ayrilgan, moddiy ko'makdan mahrum yetim bolalar, yolg'iz nogironlar va keksalar, shuningdek, boshqa ehtiyojmand shaxslar davlatning doimiy e'tiborida bo'lib, ularga yordam ko'rsatish – mamlakatimiz ijtimoiy siyosatining ajralmas qismi sanaladi. Rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida bu tamoyillar aholining kuchli ijtimoiy himoyasiga zamin yaratadi. Shuningdek, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi – davlat tomonidan fuqarolarga ko'rsatiladigan muhim ijtimoiy yordam shakli hisoblanadi. Bu pensiya aniq manzilli himoya tizimimizning real ishlayotganini va qonunchilik asoslari bilan mustahkamlanganini ko'rsatadi. Boquvchisini yo'qotganlikka doir pensiyalar esa vafot etgan shaxsning ilgari olib borgan mehnat faoliyati va uning nomidan Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga to'langan ijtimoiy sug'urta badallari asosida belgilanadi. Bunday pensiyalarni tayinlash tartibi amaldagi qonun hujjatlarida aniq belgilab qo'yilgan 3.

Boquvchi vafot etgan taqdirda, uning qaramog'ida bo'lgan mehnatga layoqatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega bo'ladilar. Farzandlar va

1 Ziyadullayev M.D O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish: Dissertatsiya. – Toshkent, 2023. – 250 b. (161-bet)

2 Ziyadullayev M.D O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish: Dissertatsiya. – Toshkent, 2023. – 250 b. (162-bet)

3 O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy ta'minot huquqi. Yu.Tursunov. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan yuridik instituti va boshqa oliy o'quv yurtlarining yuridik fakultetlari bakalavriyat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.—T.: «Voriz-nashriyot», 2012,—304 b.

ba'zi boshqa shaxslar uchun bu huquq boquvchining qaramog'ida bo'lgan-bo'lmaganidan qat'i nazar amal qiladi. Agar ota-ona yoki turmush o'rtoqlari marhum boquvchining qaramog'ida bo'lmagan bo'lsa ham, agar ular keyinchalik moddiy yordamga muhtoj bo'lib qolsa, pensiya olish huquqiga ega bo'ladi. Mehnatga layoqatsiz oila a'zolari quyidagilardan iborat:

a) 18 yoshga to'lmagan farzandlar, aka-uka, opa-singil va nabiralar, shuningdek agar ular 18 yoshga to'lguniga qadar nogiron bo'lgan bo'lsa, 18 yoshdan kattalar ham. Bu holatda, agar ota-onasi mehnatga layoqatli bo'lmasa, ular ham shu ro'yxatga kiradi.

b) Ota, ona, o'gay ota/ona, turmush o'rtoqlar (er yoki xotin), agar ular pensiya yoshiga yetgan yoki nogiron bo'lsa.

v) Yoshidan va sog'lig'idan qat'i nazar, ota yoki ona, er yoki xotin, buva, buvi, aka-uka yoki opa-singil, agar ular vafot etgan boquvchining bolalarini yoki boshqa qarindoshlarini qarovsiz qoldirmasdan parvarish qilayotgan va ishlamaydigan bo'lsa.

g) Buva va buvi, agar ularni boqishga majbur bo'lgan boshqa qarindoshlari mavjud bo'lmasa.

Agar o'quvchi yoki talaba bo'lsa, ular o'qishni davom ettirgan davrda, lekin 23 yoshga to'lgunicha pensiya olish huquqiga ega bo'ladi. Farzandlikka olinganlar, agar ular voyaga yetmagan bo'lsa, bu huquqni saqlab qoladilar. O'gay farzandlar ham, agar ular marhum ota-onasidan aliment olmagan bo'lsa, haqiqiy farzandlar kabi pensiya olish huquqiga egadirlar. Shuningdek, o'gay ota yoki o'gay ona, agar ular o'gay farzandni 18 yoshga to'lguncha kamida 5 yil tarbiyalagan bo'lsa, ular ham pensiya olishga haqlidir. Bu holatni tasdiqlash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Qonunning boquvchisini yo'qotganlikka oid barcha me'yorlari bedarak yo'qolgan fuqarolarning oilalariga ham tegishli bo'lib, agar bu holat rasmiy tasdiqlangan bo'lsa, ular uchun ham pensiya tayinlanadi. Agar oila a'zolari marhum boquvchining doimiy moddiy yordamidan foydalangan bo'lsa, bu yordam ularning asosiy tirikchilik manbai bo'lgan bo'lsa, ular rasmiy ravishda boquvchining qaramog'ida deb e'tirof etiladi. Agar boquvchi mehnat faoliyati davomida mayib bo'lib yoki kasb kasalligiga uchrab vafot etgan bo'lsa, uning oila a'zolariga pensiya ish stajiga qaramasdan belgilanadi. Umumiy kasallik yoki baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan boquvchi zarur ish stajiga ega bo'lgan bo'lsa, uning oilasiga ham pensiya tayinlanadi. Agar boquvchi xorijda ishlagan va O'zbekistonga ko'chib kelgan bo'lsa, boshqa mamlakatdan pensiya olib turgan oila a'zolariga stajidan qat'i nazar, agar ilgari pensiya olmagan bo'lsa boquvchi zarur ish stajiga ega bo'lgan bo'lsa yoki mehnatdagi mayiblik yoki kasallikdan vafot etgan bo'lsa, pensiya tayinlanadi. Agar boquvchi umumiy kasallikdan vafot etgan va zarur stajga ega bo'lmagan bo'lsa, pensiya bor stajga mos ravishda tayinlanadi. Er (yoki xotin) vafot etib tayinlangan pensiya, agar tirik qolgan turmush o'rtoq qayta turmush qurgan taqdirda ham saqlanib qoladi. Oilaning barcha pensiya olish huquqiga ega a'zolari uchun umumiy bitta pensiya belgilanadi. Istalgan oila a'zosi o'z ulushini alohida ajratishni so'rashi mumkin va bu holda ulushi mustaqil tarzda to'lanadi. Pensiyadagi ulushni ajratish ariza topshirilgan oyning keyingi oyidan boshlab amalga oshiriladi ¹.

O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan davlat pensiya tizimi fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari har biri o'ziga xos huquqiy asos va tayinlash tartibiga

¹ <https://lex.uz/acts/-112314> O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida", 03.09.1993-yil 938-XII-son (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2023)

ega. Yoshga doir pensiya – mehnat staji va ma'lum yoshga yetganlik asosida, nogironlik pensiyasi – sog'lig'i yomonlashgan fuqarolarga, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi esa vafot etgan shaxsning qaramog'ida bo'lganlarga tayinlanadi. Ushbu pensiyalar orqali davlat fuqarolarning mehnatga qobiliyatsiz davrida ham ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashni ko'zda tutadi. Pensiya tizimi xalqaro hamkorlik asosida takomillashib borayotgan bo'lib, ehtiyojmand qatlamlarga alohida e'tibor qaratilishi – ijtimoiy adolat tamoyillarining amalda ro'yobga chiqayotganini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy ta'minot huquqi. Yu.Tursunov. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan yuridik instituti va boshqa oliy o'quv yurtlarining yuridik fakultetlari bakalavriyat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.—T.: «Voriz-nashriyot», 2012,—304 b. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasining qonuni. — Toshkent sh., 1993-yil 3-sentabr, 938-XII-son.
2. M.Ziyadullayev. O'zbekistonda yoshga doir pensiya tizimiva uning huquqiy asoslarini takomillashtirish. Diss..dokt PhD. –T.: 2019.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.10.2023 yildagi PQ-353-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020)
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida", 03.09.1993-yil 938-XII-son (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2023)

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.